

## BYUDJET TASHKILOTLARIDA DAVLAT XARIDLARI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Karlibayeva Gulshat Xojabayevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi dotsenti

[karlibaeva.gulya@gmail.com](mailto:karlibaeva.gulya@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada budjet tashkilotlarida davlat xaridlari mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Davlat xaridlari samarali tashkil etishda shaffoflik, raqamlashtirish va korrupsiyaga qarshi kurash muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tajriba va O'zbekistonidagi mavjud amaliyot asosida davlat xaridlari tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, budjet tashkilotlarida xarid jarayonlarini isloh qilish, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish va davlat mablag'lardan maqsadli foydalanish masalalariga e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** davlat xaridlari, budjet tashkilotlari, raqamlashtirish, tender, shaffoflik, samaradorlik.

### I.KIRISH

Shiddat bilan o'zgarayotgan jahon iqtisodiyot va moliyaviy globallashuvi sharoitida har bir sohani, shu jumladan byudjet tashkilotlaridagi davlat xaridlari amalga oshirish mexanizmlarini ham yanada rivojlantirish va takomillshatirish maqsadida soha faoliyatiga zamонавиј innovasion texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Aytish kerakki, keyingi yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirib borilishi natijasida davlat ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan barcha xarid jarayonlari tubdan o'zgarib bormoqda.


Byudjet tashkilotlarining davlat xaridlari mexanizmiga zamонавиј innovasion texnologiyalarni joriy etish orqali davlat xaridlari uchun ajartilgan byudjet mablag'lari, umuman olganda belgilangan moliyaviy resusrlardan samarali foydalanish o'zining ijobjiy samarasini beradi. Bu borada, byudjet tashkilotlari davlat xaridlari faoliyati doimiy ravishda rivojlanib, amalga oshirish mexanizmi esa uzuksiz ravishda takomillashtirilib borilayotgan raqamli texnologiyalar va transformasiya jarayonlari ta'sirida rivojlanish tendentsiyasiga ega bo'ladi, deb hiso'blaymiz.

Byudjet tashkilo'tlarinida davlat xaridlari amalga oshirish tizimi va mexanizmi "buyurtmachi" hamda "etkazib beruvchi" tomonidan xaridlarni amalga oshirishda qabul qilingan mavjud qonun hujjatlarining buzilishi holatlarini doimiy monitoring qilish hamda moliyaviy nazoratni ta'minlovchi yagona axborot tizimi asosida ishlashi maqsadga muvofiq, deb ta'kidlaymiz. Moliyaviy nazorat davlat buyurtmasini amalga oshirishning shakli – byudjet tashkilotlarida "davlat xaridlari mexanizmi"ning barcha darajadagi bosqichlarida amalga oshirilishi lozimdir, buning natijasida, avvaldan mumkin bo'lgan turli xildagi qonunbuzarlik, korrupsiya kabi "qora elementlar"larni o'z vaqtida oldini olish imkoniyati paydo bo'ladi. Byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari amalga oshirish mexanizmining asosiy kontsepsiysi sifatida "davlat" hamda zaruriy ehtiyojlarni qondirish maqsadidagi tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni xarid qilish sohasida tuziladigan shartnomalar tizimi xaridlarni amalga oshirish faoliyatidagi shartnomaga tizimi ishtirokchilarining yig'indisi hisoblanib, ular tomonidan davlat xaridlari elementlari bevosita amalga oshiriladi. Bu borada, "Rossiya Federasiyasida davlat xaridlari sohasida qabul qilingan mavjud qonunlarga hamda

davlat va kommunal ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan harakatlar, jumladan tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni xarid qilishda tuziladigan ikki tomonlama shartnoma tizimi samaradorligini oshirishda zamonaviy innovation echimlarni qo'llash, jumladan yagona axborot tizimidan foydalanish, moliyaviy instrumentlarni nazorat qilish kabilar muhimdir”.

## II.ASOSIY QISM

Mazkur dissertasiya tadiqoqtida ko‘rilgan xorijiy davlatlardagi byudjet tashkilotlari davlat xaridlarini amalga oshirish tajribalari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat rivojlanayotgan davlatlarda xaridlarni amalga oshirish davomida faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilar qatnashadi. Shu sababdan ham davlat shartnoma tizimi vositalari orqali ishtirokchilarga rag‘batlantiruvchi, bir muncha proteksionistik motivation ta’sir ko‘rsatadi. Bunda xorijiy tajribalarning asosiy xususiyati esa davlat xaridlarini ishtirokichlarining harakatlariga nisbatan shikoyatlar tizimini ishga tushirilganligi byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini mexanizmining samaradorligini baholashga imkoniyat beradi. Xususan, Rossiyada byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini samarali tashkil etishda tuzilgan shartnoma shartlarini buzgan yoki sifatli xizmatlar ko‘rsatmagan etkazib beruvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan “vijdonsiz etkazib beruvchi”larning yagona reestrini yuritish borasidagi innovation echim o‘zining samarasini bermoqda. Mazkur holatda, respublikamizdagi byudjet tashkilotlarining davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmini rivojlantirish maqsadida davlat xaridlarini innovation baholash tizimini yo‘lga qo‘yish taklif etiladi.



**1- rasm. Byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirishda aks ta’sir baholash mexanizmi<sup>36</sup>**

<sup>36</sup> Muallif ishlanmasi.

Shuningdek, byudjet tashkilotlarining aksariyatida davlat xaridlari ijtimoiy xususiyatlidir. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy samaradorlikni hisobga olish zarurligini ham anglatadi, yuqoridagi mexanizm ham ushbu maqsadga erishish imkoniyatini beradi. Qolaversa, byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari amalga oshirish mexanizmining samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning mavjudligi ushbu jarayon samaradorligiga xizmat qiladi:

1

- xaridlar rejalarining bajarilishi (o‘lchov birligi foizda)

2

- byudjetni tejash miqdori (Real raqamlarda)

3

- xaridlarni amalga oshirishda qonuniy talablarga qanchalik rivoja qilinganligi (qonun buzilishi haotlarining soni va takroriy harakati soni)

4

- yuqori sifatli tovarlar va xizmatlar darajasi (foizda)

5

- reestrдagi o‘rnii

## **2- rasm. Byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirishni baholashning umumiy ko‘rsatkichlar tizimi<sup>37</sup>**

Hozirda davlat (shahar) xaridlari elektron shaklga o‘tkazildi. Yagona axborot tizimiga xaridlar ishtirokchilarining yagona reestri joriy etiladi. Bundan tashqari, davlat xaridlari tizimidagi raqobatni tahlil qilish asosida xaridlarda ishtirok etishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning yangi modeli joriy etildi.

Byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari mexanizmini innovation transformasiya orqali takomillashtirish istiqbolli yo‘nalishlaridan yana biri – “yashil davlat xaridlari” tizimini shakllantirishdir. “Yashil davlat xaridlari” uchun axborot bilan ta’minlashni rivojlantirishning qiziqarli yo‘nalishi hududiy axborot tizimlarini yaratish hisoblanadi, deya ta’kidlaymiz. To‘g‘ridan-to‘g‘ri “yashil xaridlar” deb belgilangan davlat xaridlarining alohida segmentini aniqlash tadqiqotimizning muhim qismi hamdir. Davlat xaridlarining hududiy platformalarining ijobiy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hududdagi tadbirkorlarning joylashtirilgan xaridlar haqidagi ma’lumotlardan tezkor va qulay foydalanishini ta’minlab, raqobat darajasini oshirish imkoniyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, Rossiya Federasiyasining Yaroslavl viloyatida “Yarinform” davlat xaridlari haqida xabar berish tizimi mintaqadagi barcha nashr etilgan davlat xaridlari to‘g‘risida ma’lumotni maqsadli taqsimlashni amalga oshiradi. Oqohlantirish tizimining joriy etilishi Yaroslavl viloyati hukumatiga tadbirkorlarga xaridlarda ishtirok etish, raqobat va shaffoflikni oshirish, mintaqada xaridlarning

<sup>37</sup> Muallif ishlanmasi.

ochiqligi va nihoyat, byudjetni tejashni oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga imkon berdi. Tadbirkorlar uchun “Yarinform” davlat xaridlari tizimi ham o‘ta foydali bo‘ldi, bu ularga qiziqqan xaridlarni qidirishda vaqt va mehnat resurslarini tejash imkonini beradi, shuningdek, mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish imkoniyatlarini oshiradi. Bunday tizimlarning o‘ziga xos xususiyati kichik hajmdagi xaridlar haqida xabar berishdir.

Yashil davlat xaridlari (GPP) - atrof-muhitga kamroq zarar etkazadigan tovarlar va xizmatlarning butun hayot aylanishini hisobga olgan holda davlat xaridlaridir. GPP iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qiluvchi keng qamrovli barqaror davlat xaridlari dasturining bir qismidir. Mamlakatlar o‘n yildan ortiq vaqt davomida yashil davlat xaridlari (GPP) strategiyalari va siyosatlarini ishlab chiqmoqda va ularning qabul qilinishi 2030 kun tartibi va barqaror rivojlanish maqsadlari yaratilganidan beri sezilarli darajada oshdi. So‘rovda qatnashgan 34 IXVTT davlatidan 32 tasi (94%) faol milliy GPP siyosati yoki tizimiga ega, bu GPP mamlakatlar tomonidan ma’qullangan iqlim harakati maqsadlariga erishish uchun kuchli vosita sifatida keng qabul qilinganligini ko‘rsatadi.

### 1-jadval

#### Atrof-muhit va yashil davlat xaridlari siyosati o‘rtasidagi institusional muvofiqlashtirish, 2022 yil<sup>38</sup>

№	Mamlakat	Ha, Atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi yoki unga tenglashtirilgan tashkilot	Ha, vazirliklararo ishchi guruh orqali	Ha, maxsus guruh orqali	Yo`q
1	<b>Avstraliya</b>	•			
2	<b>Avstriya</b>	•			
3	<b>Belgiya</b>		•		
4	<b>Kanada</b>		•		
5	<b>Chili</b>	•			
6	<b>Kosta-Rika</b>				•
7	<b>Daniya</b>		•		
8	<b>Estoniya</b>	•			
9	<b>Finlyandiya</b>				•
10	<b>Fransiya</b>		•		
11	<b>Germaniya</b>		•		
12	<b>Gretsiya</b>				•
13	<b>Islandiya</b>		•		
14	<b>Irlandiya</b>	•			
15	<b>Isroil</b>			•	
16	<b>Italiya</b>	•			
17	<b>Yaponiya</b>	•			

<sup>38</sup> <https://stat.link/q6elfr>

18	Koreya	•			
19	Latviya	•			
20	Litva	•			
21	Niderlandiya	•			
22	Yangi Zelandiya		•		
23	Norvegiya		•		
24	Polsha	•			
25	Portugaliya			•	
26	Slovakiya	•			
27	Sloveniya		•		
28	Ispaniya		•		
29	Shvetsiya		•		
30	Shveytsariya		•		
31	Birlashgan Qirollik		•		
32	Qo'shma Shtatlar		•		
<b>Jami OECD</b>		<b>13</b>	<b>14</b>	<b>2</b>	<b>3</b>

1-jadvalda, IHTTning hisobotida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, barcha IXVTT (iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) mamlakatlaridagi davlat xaridlari organlari boshqa davlat idoralariga tayanuvchi GPP siyosatiga ega. IXVTT (IXVTT) ning 32 davlatidan 29 tasida (90%) milliy tuzilmalar GPP siyosatini ishlab chiqish, amalga oshirish va ko'rib chiqish mexanizmini o'z ichiga oladi. "Ushbu mamlakatlarning 13 tasida (45%) atrof-muhitni muhofaza qilish vazirliklari yoki shunga o'xhash idoralar GPP va ekologik siyosatni rasmiy ravishda muvofiqlashtiradi va shu bilan ularning ekologik maqsadlarini amalga oshirishda GPP rolini kuchaytiradi. Yana 16 ta davlat (55%) turli manfaatdor tomonlarni birlashtirgan vazirliklararo yoki maxsus ishchi guruhlarga tayanadi. Qo'shma Shtatlarda GPP va atrof-muhit siyosati o'rtaqidagi muvofiqlashtirish hukumatning eng yuqori darajalaridan biri, Prezidentning Ijroiya devoniga bog'liq. Frantsiyada esa barqaror rivojlanish bo'yicha Bosh komissiya, barqaror rivojlanish bo'yicha vazirliklararo delegasiya 2022-2025 yillarga mo'ljallangan barqaror xaridlar milliy rejasini boshqarish uchun mas'uldir".

Yashil davlat xaridlarining jahon tajribasida tutgan o'rni va rivojlangan mamlakatlar amlaiyotidan kelib chiqib O'zbekistonda yashil davlat xaridlari bo'yicha takliflarni baholash mezonlar turkumini joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunda, baholash mezonlari chiqindi va zaharlilik darajasi, resursdan foydalanish samaradorligi, tovar hayotiy tsikl xarajatlarini tahlil qilish turkumlari bo'yicha ajratib olinishi lozim. Barqaror rivojlanish mezonlari asosida xaridlar bo'yicha qarorlarni asoslash uchun "yashil" davlat xaridlarini joriy etish — mahalliy "yashil" tovarlar bozorini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishda barqaror standartlarni ilgari surish va davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida tender va shartnomalarda ekologik mezonlardan foydalanishga ruxsat beradigan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning ta'sirini kuchaytirish maqsadida 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha harakatlar rejasida belgilangan chora-tadbirlarni ijrosi sifatida

tajriba-sinovlari o‘tkaziladigan pudratchi tashkilotlar ishtirokida takliflarni barqaror davlat xaridlari bo‘yicha baholash algoritmiini taklif etamiz

Biz taklif etgan barqaror davlat xaridlari algoritmi jahon tajribasiga xos bo‘lgan va o‘zining samaradorligini isbotlagan barqaror xarid amaliyotini O‘zbekistonda qo‘llashda takliflarni baholash mezonlarini va bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Xarid bitimlarini tuzishda bu kabi baholash tizimi barqaror rivojlanishning uchta asosiy omili: iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar o‘rtasida muvozanatga erishishni ta’minlaydi. Iqtisodiy omillar hayotiy tsiklning barcha bosqichlarida mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish, foydalanish va ularni yo‘q qilish kabi xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy omillarga mehnat sharoitlari, inson huquqlari va ijtimoiyadolat omillari kiradi. Atrof-muhit omillari atmosferaga chiqindilar, oqava suvlarni suv havzalariga oqizish, iqlim o‘zgarishi, ekotizim bioxilma-xilligini saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog‘liq masalalarni o‘z ichiga oladi.

Byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari mexanizmini innovation transformasiya orqali takomillashtirish istiqbolli yo‘nalishlaridan yana biri – davlat xaridlari tizimida tovarlar, ishlar va xizmatlar katalogini ham yaratish orqali davlat xaridlari haqidagi ma’lumotlarni yagona standart holatga ketirish mumkin. Bunda kichik biznes sub’ektlarining davdat xaridlari ishtirok etish imkoniyatidan foydalanish tizimi sezilarli darajada soddallashtirilishi natijasida ishtirokchilar soni ortadi.

Yuqorida taklif etilgan barcha tadbirlar byudjet tashkilotlarining davlat xaridlari tizimidagi to‘liq innovasiyalar emas, albatta. Ammo, ushbu istiqbolli takliflar byudjet tashkilotlari davlat xaridlari mexanizmi samaradorligini oshirishda muhim samarali natijalarni berishi mumkin. Byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari mexmnizmini takomillashtirishga oid amalga oshirilgan qator chora-tadbirlarga qaramasdan mazkur sohada hal etilishi lozim bo‘lgan ko‘plab muammolar haligacha mavjudligicha qolmoqda. Davlat xaridlari tizimida “yetkazib beruvchi”larni tanlash mezonlarining minimal to‘plamini qaytadan ishlab chiqish hamda qabul qilish axborot almashish tizimini yanada soddallashtirish imkoniyati mavjud. Bu esa davlat xaridlari dagi savdo ishtirokchilarining o‘zaro hamkorligini optimallashtiradi, shuningdek byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonining barcha bosqichlarida mavjud qonun hujjalariiga riosa etilishi ustidan nazoratni samarali ta’minlaydi.

Shuningdek, byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari tizimini yanada rivojlantirishning istiqbolli yo‘anlishlaridan biri sifatida davlat xaridlarini raqamli transformasiyasini alohida ta’kidlash o‘rnlidir. Bu borada, zamonaviy moliyaviy texnogiyalardan foydalanish o‘zining ijobiy samarasini beradi, deb hisoblaymiz.

Umuman olganda, davlat boshqaruvida, jamiatning barcha jabhalarida keng ko‘lamli raqamli yutuq va aqlii texnologiyalarga o‘tish yo‘lida juda global miqyosda ishlar amalga oshirilayotganligi byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari mexanizmini shular hisobiga yanada rivojlantirishni taqozo etadi. Bu borada, mahalliy it-sanoatni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatning mavjudligini alohida ta’kilab o‘tish ham joiz, deb hisoblaymiz. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, “aqlii xaridlar tizimini yaratish uchun universal texnologiya, deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan blokcheyn texnologiyasi alohida qiziqish uyg‘otadi: bu borada u to‘liq shaffoflik, desentralizasiya qilish, maxfiylikni ta’minlash, ishonchlilik hamda shaffoflikni ta’minlashi bilan ajralib

turadi, deyish mumkin. Shuningdek, bu boradagi innovation yangilanishlar xarid qiluvchi sub’ektlarning holatini huquqiy va iqtisodiy jihatdan yaxshilanishiga olib kelishi mumkin “. Quyidagi 2-jadvalda jadvalda byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari mexanizmidagi ilg‘or texnologik echimlar tahlil qilingan, shuningdek, ularni amalga oshirishning ijobiy ta’siri o’rganilgan.

## 2-jadval

### Byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari moliyaviy texonolgiyalar orqali raqamli transformasiyasi istiqbollari<sup>39</sup>

Taklif etilayotgan echimlar nomi	Tavsifi	Texnologiyalarni joriy etish samarasi
Davlat xaridlariiga jarayonlari uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish	Mazkur echim orqali davlat xaridlari sohasini onlayn rejimda sun'iy intellekt texnologiyalari orqali avtomatik rejimda ishslash faoliyati yo‘lga qo‘yiladi	<i>Natijada byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari amalga oshirishda quyidagi samaradorlikka erishish mumkin:</i> - davlat xaridlari jarayonlarini amalga oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalari orqali xaridlarni amalga oshirishda inson omili nisbatan cheklanadi
Smart contract – aqlilli shartnomalar	Smart contract - alohida dasturlash tilida yozilgan bo‘lib, "uchinchi shaxs"larning bevosita aralashuvsız tuzilgan hamda tomonlar elektron raqamli imzadan foydalangan holda tasdiqlanuvchi shartnomalar	Davlat xaridlari jarayonida amalga oshirilgan tranzaktsiyalardagi yozuvlarni saqlaydigan hamda ularni taqsimlangan maxsus ma'lumotlar bazasi hisoblanadi, natijada byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari amalga oshirishda quyidagi samaradorlikka erishish mumkin: - byudjet tashkilotlarining davlat xaridlari jarayonida ishtirok etish mexanizmi yanada takomillashtiriladi va ishtirko etish imkoniyati sezilarli darajada soddalashtiriladi
Blokcheyn texnologiyalari	Byudjet tashkilotlarining davlat xaridlari amalga oshirishda yuqori darajadagi xavfsizlikda ma'lumotlarni saqlash, ularni uzatish imkoniyati bilan taqsimlangan ma'lumotlar registrining maxsus innovation texnologiyasi hsiobalanadi	<i>Natijada byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari amalga oshirishda quyidagi samaradorlikka erishish mumkin:</i> - jarayoning raqamlashuvining to‘liqligi ortadi; - davlat xaridlari dagi ma'lumotlarni himoyasi kuchayadi; - byudjet tashkilotlari davlat xaridlari yanada shaffoflashadi

Ushbu sohadagi texnologiyalarni o‘zgartirish quyidagi maqsadlarga erishish uchun davlat xaridlari yuqori sifatli avtomatlashtirishni ta’minlaydigan keng ko‘lamli vositalarni yaratish va joriy etishni talab qiladi: mijozlar va korxonalar uchun xarajatlarni kamaytirish, olingan tovarlar, ishlari va xizmatlar sifatini oshirish va muhimmi, davlat buyurtmalarining shaffofligi va ulardan foydalananish imkoniyatini oshirish. Ushbu shartlarga rioya qilish, bizning fikrimizcha, zamonaviy voqelikda

<sup>39</sup> Muallif ishlanmasi

bashoratli tahlil, kognitiv qarirlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari, kibernetik kuzatuv, blokcheyn konvergentsiyasi va sun'iy intellektga asoslangan raqamli intellektual davlat kontrakt tizimini shakllantirmasdan mumkin emas. Bu raqamli echimlar davlat xaridlari tizimidagi ishlarning yangi formatlariga kirishni ochib beradi, katta hajmdagi ma'lumotlarni tuzadi, har tomonlama va tuzilgan ma'lumotlar tahlilini shakllantiradi. Shu sababli, xaridlar tartiblari va strategiyalari moslashtirilgan va iloji boricha samarali bo'ladi. Rivojlanishning hozirgi bosqichida davlat va munisipal xaridlar tizimidagi innovasion texnologiyalar inkor etilmaydigan afzalliklarga va ularning ko'lamenti kengaytirishga yordam beradigan omillarga ega. Shunday qilib, davlat va munisipal xaridlarning axborot platformalariga o'tkazilishi raqobatbardosh xaridlar ulushining oshishiga, ishtirokchilar sonining ko'payishiga va bitta etkazib beruvchiga ustunlik bergen mijozlar ulushining kamayishiga yordam beradi. Elektron platformalardan foydalanishning ta'minlangan shaffofligi va samaradorligi Evropa komissiyasining hisob-kitoblariga ko'ra, davlat xarajatlarini 3 foizga qisqartirish imkonini beradi.

### III.XULOSA

Budget tashkilotlarida davlat xaridlari mexanizmlarini takomillashtirish davlat moliyaviy boshqaruvining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Samarali davlat xaridlari tizimi budget mablag'laridan oqilona foydalanish, shaffoflikni ta'minlash va korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda elektron xaridlar tizimi keng joriy etilgan bo'lib, tender jarayonlarining ochiqligi va adolatlri raqobat muhiti ta'minlangan.

O'zbekistonda ham davlat xaridlari tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Elektron davlat xaridlari platformasi joriy etilgani jarayonning shaffofligi va tezkorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tenderlarda mahalliy ishlab chiqaruvchilar ulushini oshirish, korrupsiyaga qarshi qat'iy nazorat o'rnatish va xarid jarayonlarining samaradorligini baholash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur.

Budget tashkilotlarida davlat xaridlari tizimini yanada rivojlantirish uchun quyidagi choralar tavsiya etiladi:

Elektron tender tizimini takomillashtirish – barcha xarid jarayonlarini raqamlashtirish va inson omilini kamaytirish;

Shaffoflik va jamoatchilik nazoratini oshirish – tender natijalarini keng jamoatchilikka e'lon qilish va ommaviy muhokamalarni tashkil etish;

Korrupsiyaga qarshi qat'iy choralar ko'rish – manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va ochiq ayblov mexanizmlarini joriy etish;

Iqtisodiy samaradorlikni oshirish – budget tashkilotlari uchun maqbul narx va sifat balansini ta'minlashga yo'naltirilgan xarid strategiyalarini ishlab chiqish.

Shu tariqa, budget tashkilotlarida davlat xaridlari mexanizmlarini takomillashtirish davlat moliyasining samarali boshqarilishi va barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribadan samarali foydalanish va milliy xaridlar tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bu sohadagi islohotlarning yanada samarali amalga oshirilishiga ko'maklashadi.

#### IV.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 22 декабрдаги “Давлат харидлари тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2022. – №12. – Б. 7–10.
12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 14 мартаидаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси ([lex.uz](http://lex.uz)).
13. Ахмедов, У.Ж. Давлат харидларини ташкил этиш ва бошқариш: назария ва амалиёт / У.Ж. Ахмедов. — Тошкент: Иқтисод-Молия, 2022. — 240 б.
14. Каримов, А.А. Давлат молиявий назорати: назарий асослар ва амалиёт / А.А. Каримов. — Тошкент: Фан ва технологиялар, 2021. — 176 б.
15. Мансуров, Ш.Қ. Коррупция ва давлат харидларида шаффоффлик / Ш.Қ. Мансуров. — Тошкент: Адолат, 2020. — 200 б.
16. OECD. Government at a Glance 2022: Public Procurement. — Paris: OECD Publishing, 2022. — 300 p.
17. Thai, K.V. International Handbook of Public Procurement / K.V. Thai. — Boca Raton: CRC Press, 2017. — 840 p.
18. Arrowsmith, S. The Law of Public and Utilities Procurement / S. Arrowsmith. — London: Sweet & Maxwell, 2018. — 1350 p.
19. World Bank. Public Procurement Review: Enhancing Transparency and Efficiency. — Washington, D.C.: World Bank Group, 2021. — 420 p.
20. Transparency International. Corruption in Public Procurement: Risks and Prevention Strategies. — Berlin: Transparency International, 2020. — 180 p.